

QAXXOROVA Matlyuba

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar
kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori
matlyuba71@mail.ru*

AHMEDOVA O'g'iloy

*Farg'ona davlat universiteti mustaqil
izlanuvchisi*

MA'NAVIY TARBIYA STRATEGIYASI

SPIRITUAL EDUCATION STRATEGY

СТРАТЕГИЯ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyatda milliy qadriyatlarni yuksalishiga sabab bo'luvchi ma'naviy tarbiyaning strategik zarurati ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalari sifatida ta'lim-tarbiya jarayoni, qadriyatlar transformatsiyasi va ta'sir ko'rsatkichlari ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, milliy qadriyatlar yuksalishi va ma'naviy tarbiya strategiyasining uzluksiz ma'naviy tarbiya bilan amalga oshirilish zarurati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Milliy qadriyatlar, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, ma'naviy tarbiya strategiyasi, ta'lim-tarbiya, jamiyat, yoshlar, shaxs.

Annotation. In this article, a socio-philosophical analysis is made of the strategic necessity of spiritual education, which causes the rise of national values in the society. The impact of educational processes on values as tools of spiritual education strategy is scientifically based. It is also revealed the need for the promotion of national values and the implementation of the strategy of spiritual education with continuous spiritual education.

Keywords. National values, spirituality, spiritual education, strategy of spiritual education, education, society, youth, personality.

Аннотация: В данной статье проводится социально-философский анализ стратегической необходимости духовного воспитания, обуславливающего подъем национальных ценностей в обществе. Воздействие образовательных

процессов на ценности как инструменты стратегии духовного воспитания имеет научное обоснование. В качестве методологии научной статьи выявлена необходимость использования духовно-психологических аспектов влияющих на совершенствование индивидуально-личностных качеств человека, в частности, эффективности общения и прогнозирования.

Ключевые слова. Национальные ценности, духовность, духовное воспитание, стратегия духовного воспитания, образование, общество, молодежь, личность.

KIRISH

Jamiyatdagi mavjud jarayonlarni o'z davri va bosqichlarida yuksalishi shaxs ma'naviy qiyofasiga bevosita bog'liq. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy tarbiyaning eng muhim muammolaridan biri bu shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi muammosi hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti"[1.267], deb ta'kidlaydi. Bu esa yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning ma'naviy tarbiya jarayonida muhim vosita ekanligi, shaxsning jamiyatdagi o'rnini topishi uchun ham muhimdir.

ASOSIY QISM

Milliy qadriyatlar yuksalishida ma'naviy tarbiya eng avvalo ilmiy asoslarga tayangan holda oddiydan murakkabga qarab borishi, ijtimoiy hayot bilan chambarchas aloqadorlikda, voqelikdan uzilmagan holda tizimlashtirish, uzviylik, izchillik, tezkorlik, axloqiylik, didlilik asosida tashkil etilishi, uning barcha mazmun-mohiyatida milliy g'oya ufurib turishi, ishlash mexanizimida qat'iylik, nazariya va amaliyot birligiga tayanishi, o'zbek xarakteriga xos sifatlarni inobatga olish, aniqlik, tarbiyalash, permanentlik, ko'rgazmalilik, ibratlilik va boshqa tamoyillarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Milliy qadriyatlar yuksalishida ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalari ilmiy

asoslarga tayanishi zaruriyat bo'lib, ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish kafolati hisoblanadi.

Ma'naviy jarayonlar transformatsiyasi murakkab ma'naviy-axloqiy voqelikni, insonning sadoqatidan kelib chiqadigan asosiy qadriyatlarni yangilanishni ifoda etar ekan, bunda avvalo, ma'naviyatning tahlili, uni tadbiiq etilish bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar, ma'naviyatni tasniflashida uning uch turi nisbatan ko'proq muhokama qilinadi. Xususan, birinchi turini individual va shaxsiy fazilatlar bilan tavsiflanadigan aql-idrokka kiritish mumkinligi qayd etilgan. Aql-idrokning individual fazilatlarini tabiiy muhitga moslashuvchan xarakterni, shaxsiy fazilatlar esa aqlni jamiyatga, aql rivojlanishining ob'ektiv shartlariga, ta'limga, o'zini tutishning yuqori madaniyatiga moslashtirishni tavsiflashi keltirilgan. Ma'naviyatning ikkinchi turi ichki faollik va ruhiy holatlarning intensivligi, shaxs uchun ruhiy taranglikning doimiy namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ma'naviy holatlarning yuksak o'sish davrlarini va uni amaliyotda qo'llash davrlarini ajratish mumkin. Uchinchi turdagi ma'naviyat bu ruhiy erkinlik bilan tavsiflanishi, bu sub'ektning tabiat va jamiyat rivojlanish qonuniyatlarini anglash asosida o'z xohish-irodasini namoyon etish imkoniyatini anglatishi [2.15], zarurligini anglatadi. Bizningcha bu jarayonning muhim jihati ikkita asosiy maqsadda namoyon bo'ladi, birinchidan, uning vazifasi jamiyat tomonidan yaratilgan madaniy qadriyatlarning bir qismini individuallashtirishi bo'lsa, ikkinchidan, ma'naviy tarbiyaning vazifasi madaniy va estetik qadriyatlarni idrok etish uchun ma'lum qobiliyatlarni yaratishdir.

Ma'naviy tarbiya - yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir [3.318]. Qadriyat sifatida ma'naviy tarbiya strategiyasi muammosining dolzarbligi quyidagilar bilan bog'liqdir.

Birinchidan, ma'lumotli, ma'naviyatli, nafaqat bilim, balki mukammal shaxsiy fazilatlariga ega insonlarni tarbiyalashdir. Ikkinchidan, yoshlar dunyoqarashini, ongu shuurini, shakllanish, rivojlanish bosqichidagi aql-zakovati va his-tuyg'ularini, axloqiylikka zid bo'lgan salbiy xislatlar, illatlar ta'siridan xalos etish. Uchinchidan, ta'limning barcha bosqichlarida izchil ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish orqali, kundalik xulq-atvorda, o'zaro munosabatlarda, shaxslararo muloqotda hurmat va xayrixohlik asosini belgilaydigan shaxsiy xususiyatlarni kuchaytirishdir. To'rtinchidan esa, shaxsning ma'naviy-axloqiy ko'nikmasida milliy qadriyatning o'ta muhimligi nuqtai-nazaridan kelib chiqib, ma'naviy tarbiya muommosiga qaratilgan muammolar yechimiga maqsadli, tizimli, majmuaviy yaxlit yondashuv muhim hisoblanadi. Bunda muammo yechimiga "Qadam baqadam" texnologiyasi orqali yondashuv samarali bo'lib, ma'naviy tarbiya strategiyasi mazmunida muammo yechimiga bag'ishlangan asosiy maqsad, qilinadigan vazifalar, qo'llaniladigan taktika, muammoni bartaraf etish metodikasi, profilaktika usullari, tadbiiq etish mexanizmlari, mexnazimlarni yurituvchi murvatlar va dastaklar, oqibat va natija, endogen va ekzogen ta'sir kuchlari to'g'ri aniqlash xis qilinishi kerak bo'ladi. Shuningdek, bu jarayon zamonaviy jamiyatda tasdiqlangan xulq-atvor normalari haqida tushunchalarni kengroq yoyish bilan birga, muayyan me'yorlarni buzilishi yoki bu negativ harakatlarning atrofda uchrashuv uchun oqibatlari va ulardan yetarlicha ogoh bo'lish haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish, tadbiiq va tadorik ishlarida ham muhim hisoblanadi. Ma'naviy tarbiyaning strategik maqsadida jamiyat a'zolarining xususan, yoshlarning haqiqatparvarlik, ezigulik, toqatlilik, e'tiqodlilik, sabrlilik kabi abadiy insoniy qadriyatlarni puxta egallashi tashkil etar ekan, bu jarayon ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalarini to'g'ri tanlash va tadbiiq etish zarurligini taqozo etadi. Bu esa, o'z insoniy qiyofasini ma'naviy-axloqiy o'zagini yo'qotmagan "kelajak odami"ni tarbiyalashga erishish uchun oqilona yo'ldir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich ham ma'naviy tarbiya strategiyasi zarurati haqida

“...mamlakatimizda ma’naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o’rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko’tarishimiz kerak”[1.287] deb qayd etganlar. Chunki, O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ochiqlik, oshkoralik muhiti ta’sirida jamiyatdagi ma’naviy muhitning salbiy qirralari namoyon bo’lib qolmoqda. Unga qarshi faqat yangicha kurash usullari bilan qarshilik qila olish mumkin. Shaxsning ma’naviy olamiga ta’sir kuchining turfa xilligi yoshlar ongi va qalbida ma’naviy-axloqiy rivojlanishning turmush tarzi bilan bevosita bog’liq bo’lgan jarayondir. Bu xususida “Odam ota-onadan tug’iladi, ammo uning axloq-odob borasidagi fazilatlari jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta’sirida shakllanadi”[4.3], degan qarash naqadar to’g’ri ekanligini anglatadi. Jamiyatda ma’naviy tarbiya strategiyasi shaxsning butun hayotiy davri ma’naviy bosqichidagi rivojlanishining tizimli natijasidir. Bunda jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning mavjudligi va ularni yaratishda shaxsning ishtiroki bilan tavsiflanadi.

“Bolalar axloq tarbiyasini oldinroq o’zi yashayotgan atrof muhit va ko’chadagi bolalardan oladilar. Bolalar suvga o’xshaydilar suv qaysi rangdagi idishda bo’lsa, o’sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo’lsalar o’sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko’proq yaxshi va yomon axloqni o’z uylaridan, ko’chadagi o’rtoqlaridan, maktabdagi o’quvchidan qabul qiladilar”[5.56]. Demak, ma’naviy tarbiya murakkab jarayon bo’lib, bu ishda mahalla, oila, maktab va jamoa tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati samara berishi bilan ifodalanadi.

Oilada farzand tarbiyasiga e’tiborsizlik O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida”gi Qarorida ichki tahdid sifatida qayd qilinib, mazkur tahdidga qarshi samarali g’oyaviy kurash olib borish vazifasi qo’yildi. Buning dolzarbligini asoslashda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat

markazi tomonidan bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo’nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta’sirini o’rganish va zarur maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini aniqlash va manzilli sog’lomlashtirish metodikasi” hamda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” asosida joylarda o’tkazilgan so’rovlar natijalaridan misollar keltirish mumkin. Jumladan, mazkur tashxis ishlarida aholi orasidan so’rovda ishtirok etgan respondentlarning “Ota-onalarning farzandiga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o’ylaysiz?”deb berilgan savolga Navoiy (60%), Jizzax (57,4%), Sirdaryo (57%), Samarqand (53%), Buxoro (44%) viloyati hamda Toshkent shahrida (50%) ota-onalar tarbiya metodlarini bilmaydi va tarbiyadagi oilaning mas’uliyatini anglamasligi deb javob bergan, bu ko’rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasiga e’tibor borasida masalani jiddiy o’ylab ko’rishlarini taqozo qiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni bo’lib o’tgan xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida to’xtalib, “Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o’zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o’zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o’zgartirib bo’lmaydi”, - deya alohida ta’kidladi. Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta’limdan bo’sh vaqtida amalga oshiriladigan qo’shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi[6]. Tarbiyada yo’l qo’yilgan xatolar kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo’lmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim. "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", degan chuqur ma'noli gapni ko'p takrorlaymiz. Lekin, afsuski, joylarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya'ni, o'zaro hamkorlik va uyg'unlikning yo'qligi ishimizning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [1.285.]. Demak, hozirgi kunda maktab nafaqat bilim maskani balki, ma'naviy tarbiya strategiyasini milliy qadriyatlar asosida yuksaltirish makoni hamdir.

Ma'naviy tarbiya strategiyasining milliy qadriyatlar sifatida maktab tizimi olinadigan bo'lsak, "...umumiy o'rta ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya jarayoni o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr – 7 (6)-10 yoshli davrda - boshlang'ich sinflarda;

ikkinchi davr - 11-17 yoshli davrda - o'rta va yuqori sinflarda.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar - Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi"[7], deb belgilab qo'yilgan. Bu esa yoshlarni asosiy ma'naviy tarbiyasini shakllantirish vositasi ekanligini bildiradi. Bizningcha bu jarayon birinchidan, o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasiga oid manbalarini boyitish, o'quvchilar va ularning o'qituvchilari va ota-onalari o'rtasidagi munosabatlar, kundalik hayotiy axloqlik (etiket), did farosat (estetik) darajalari ortib boradi. Ikkinchidan, turli yosh bosqichlarida faoliyat va ta'lim shakllarining to'g'ri o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi. Uchinchidan, axloqiy mezonlarni istisnosiz barcha turdagi faoliyat turlarini va o'quvchilar shaxsining namoyon bo'lishini baholashga kiritish zarur.

Maktab tizimidagi ma'naviy tarbiya vositalariga umumiy va xususiy usullar, shakllar kiradi. Ma'naviy tarbiya usullaridan biri sifatida o'quvchilarni axloqiy (etiket me'yorlari) me'yor va mezonlardan xabardor qilishning ibrat va namuna

metodini olish mumkin. Bunda o'quvchilarga axloqiy me'yor va qadriyatlar haqidagi bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladigan tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi fazilatlar shakllantiriladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yana bir usuli - o'quvchilarni faoliyatga jalb qilish, ya'ni, jismoniy mehnat, ijtimoiy foydali, badiiy-ijodiy, o'quv va kognitiv, sport va dam olish jarayonlarida ma'naviy tarbiyani berishdir. "Ta'lim-tarbiya bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz"[8], bu esa maktab tizimi jamiyat uchun juda muhim ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"Qarori[9] belgilanganidek, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish"dir. Bugungi shiddatli zamon sharoitidan kelib chiqib dunyoda ta'lim va tarbiyaga e'tibor kuchayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lim-tarbiya masalasiga e'tibor yangi bosqichga kutarilmoqda. Chunki, Tarbiya fanini joriy etilishi maktablarda dars beruvchi pedagog-o'qituvchilardan o'qitishning xilma-xil usullarini qo'llay olish, ularga yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish, Tarbiya fanini o'qitish metodikasining umumiy va xususiy tamoyillaridan xabardor bo'lishni dolzarblashtiradi. Bu esa ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalarini asosida o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'zlangan natijalarga erishish samaradorligini yuqori darajaga ko'taradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "...hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"[12]ligi ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsad[13] qilib qo'yildi.

Uzluksiz tarbiya masalasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1059-sonli Qaroridan keyin yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ushbu qarorda aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni ma'naviy tarbiyalashning zarurligi, uning yurtimiz taraqqiyotiga ta'siri haqidagi vazifalar aniq ravshan ko'rsatib berilgan.

Bugungi yoshlarni har tamonlama komil inson qilib tarbiyalash, ma'naviy yuksalishini shakllantirish uchun turtki bo'lgan omillardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy sog'lom va barkamol etib tarbiyalashdir. Ushbu vazifani amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish zaruriy ehtiyoji ma'naviy tarbiya strategiyasining ta'lim-tarbiya sohasidagi muhim masala qilib milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizni ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirish hisoblanadi.

Bu jarayonda "Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur"[1.270]ligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yoshlarning shaxs sifatida shakllana borishida uning kamolati

darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat kabi xislatlarning unda qanchalik mujassamlashgani bilan belgilanadi. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asarida "yaxshi fazilatlarini o'ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur", "yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlarini yaxshilik fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi"[12.12] deb ta'kidlar ekan, yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, sahiy, mehnatkash, mehr-shafqatli, bilimdon, o'zgalar uchun qayg'uradigan mard insonlarni ko'zda tutgan. Shu o'rinda takroriy bo'lsada, yuqoridagi kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tishimiz joizdir. Xususan, odob – har bir insonning o'ziga bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqatida ham yurish-turishida o'zini tuta bilishini anglatga, xulq – odobning ko'nikmaga aylangan ko'rinishi, axloq esa, jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan, muayyan jamiyat uchun namuna bo'la oldigan inson xatti-xarakati, xulq-odob normalari majmuidir. Madaniyat bu o'z tarkibiga jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlarni qamrab olgan, insoniylik belgisini anglatga, ma'naviyat o'zida inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlarini qamrab oladi.

Milliy qadriyatlar yuksalishi ma'naviy tarbiya strategiyasi orqali amalga oshiriladi. Ma'naviy tarbiya strategiyasi ma'naviy madaniyatda tarixiy qadriyatlar, ilm-fan, san'at, adabiyot, falsafa, huquq, ta'lim, tarbiya va diniy bilim asosida ishlab chiqilgan ma'naviy ne'matlar majmuidir. Milliy, diniy va dunyoviy urf-odatlar, an'ana va marosimlar, zamonaviylik va siyosiy, ilmiy, falsafiy, huquqiy-axloqiy, etika, estetik va diniy qarashlar, g'oyalar, normalar, ommaviy axborot va shunga o'xshash sohalarning aql, qalb, ong va tafakkur mahsuli natijasidir. Bu jarayonda ma'naviyatni teranlikka, mukamallikka, go'zalikka, ezgulikka, yaxshilikka, obodonchilikka, to'kin-sochinlikka, baxt-saodatiga eltuvchi yo'l, ya'ni, ma'naviyat shunchaki shaxs xislatlari, fazilatlarini va ular yaratgan barcha ne'matlar majmui bo'lmasdan, balki insoniy ijobiy xislatlar, fazilatlar va ma'naviy komil insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ma'naviy jarayonlar majmuidir. Bunda

qadriyatlar ma'naviy tarbiyaning kuchli quroli bo'lib namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Bugungi kunda dunyoning juda ko'p mintaqalarida insoniy qadriyatlar yemirilmoqda. Ayniqsa, pandemiya sharoitida ayrim o'lkalarda betoqatlik, tajovuzkorlik kayfiyatlari kuchayib bormoqda. Mana shunday keskin vaziyatda, ulug' mutafakkirlar aytganidek, dunyoni ezgulik, mehr-shafqat, insoniylik qutqaradi"[1.278]. Bu esa ma'naviy tarbiya qadriyat ekanligini ko'rsatadi. Shaxsni va jamiyat a'zolarining qadrlash tuyg'usi yoshlikdan maktabdan o'quvchi-yoshlarning ongi va qalbidagi eng asosiy komponentlaridan biri sifatida shakllanishi kerak. Bizning fikrimizcha, tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrlash anglash, undan zavq olish, lazzatlanish, mas'uliyat hissini sezish kabilarda qadriyatning ma'naviy jihatlari namoyon bo'ladi.

Ilmiy lug'atda qadriyat deb voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha, deb ta'riflanadi. Unga "Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum [13.476] kabilar qadriyat sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqotchilar esa ma'naviy tarbiyada qadriyat masalasi haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. Jumladan "...qadriyatga yo'nalganlik o'z ichiga individning hayotiy tajribalari va orzu-armonlarini ham qamrab oladi. Ana shu sababli qadriyatga yo'nalganlik o'ziga xos psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxs tuzilishining barcha komponentlari va yaxlit tizimini aks ettiradi. Qadriyatlar tizimi milliy hamda umuminsoniy madaniyatning asosini tashkil etib, jamiyat a'zolarining ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlari, qiziqishlari, ularning ijtimoiy harakatlari va xulq-atvorini boshqarishni o'zida aks ettiradi"[14.13]. Bu bilan yoshlikdagi ijtimoiy ma'naviy ehtiyojlar to'g'ri yo'naltirilsa jamiyat taraqqiyoti uchun foydali shaxslarni voyaga etkazish mumkin ekanligi aniqlashadi.

"Yurtimizda yashayotgan yoshlar kamoloti masalasiga nafaqat ota-onalar, balki mamlakat

fuqarolari, jamiyatimizning burchi sifatida qarash ham shaxs, ma'naviy-axloqiy muhit va jamiyatning o'zaro aloqador va burchli ekanligidan dalolat beradi. Zero, yoshlar bugungi niyatlarimizni ertaga ro'yobga chiqaradigan, mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydigan, har bir sohada o'z iqtidori va iste'dodini to'la-to'kis namoyon eta oladigan avlod sifatida shakllanishi zarur. Shu ma'noda, yosh xususiyatiga asosan rivojlanishda jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini takomillashtirib borish jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti va unda shaxs faoliyati muammosini ijobiy, to'liq hal etishda muhim o'ringa ega"[15.5], ekanligini muhim hisoblanadi. Shuningdek, faylasuf P.A.Sorokin "...jamiyatdagi qadriyatlar tizimini uchta turga ajratib ko'rsatgan, birinchisi, ideatsional qadriyatlar tizimi bo'lib, mazkur tizimga doir qadriyatlar va ideallar o'zgarishsiz va doimiy, mutloq tavsifga ega bo'lib, ularni tushunib yetish jarayonida yuzaga keladigan to'siqlarni yengib o'tish jarayonida insonda hissiy qoniqish yuzaga keltiradi. Ikkinchisi hissiy qadriyatlar tizimi o'ziga xos qadriyatlarni mutloq ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Uchinchisi esa individ ishtirok etayotgan vaziyat bilan bog'liqlik bo'lgan ideal qadriyatlar tizimidir"[16.488] deb o'z qarashlarini ifoda etadi.

Faylasuf B.G.Ananev esa "Har bir hayotiy bosqich ma'lum bir qadriyatlarni hayotiy maqsad qilib qo'yishini, yoshlarda ta'lim va ilm olish, muloqot asosiy qadriyatlar sifatida namoyon bo'lishini va ularning hayotiy maqsadi [17.162] ni ushbu qadriyatlar orqali belgilashini asoslaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy tarbiyaning qadriyat sifatidagi ahamiyati ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning muayyan hodisalarida insoniy, ijtimoiy, madaniy ahamiyatni barcha ob'ektiv va sub'ektiv, ya'ni inson, tinchlik, erkinlik, do'stlik, go'zallik, yaxshilik, madaniy, moddiy va ma'naviy meros, urf-odatlar shaklida namoyon bo'ladi. Bu esa yoshlarni xalqimizning intellektual mentalitetini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bizningcha o'z navbatida, qadriyatlar darajasiga ko'tarilishi mumkin bo'lgan turli ijtimoiy, ijobiy sohalar – axloqiy, huquqiy, estetik, ilmiy, diniy me'yorlar,

normalarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish natijasida turli urf-odatlar, an'ana va marosimlar, yo'nalishlar, ishlab chiqarilgan maxsulotlar, xalq ommaviy harakati, jamiyatda progressiv rol o'ynab, takrorlanib, zamonaviylashib, zamonga muvofiqlashib boradigan voqea, hodisa natijalarda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2021.
2. Sharipov A.Z. Yangi O'zbekistonda ma'naviy-mafkuraviy islohotlar transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili. (DSc) dis-i Avtoref. Buxoro. 2021.
3. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'at. G'ofur G'ulom. Toshkent. 2010.
4. Yusupov E. "Ma'naviy kamolot omillari". Toshkent. Universitet, 1995.
5. Fitrat. A. "Rahbari najot" asaridan. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi". 2-jild. Toshkent. O'qituvchi. 1999.
6. <http://marifat-ziyo.uz/articles/milliyuksalish>.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz.
8. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/28/mirziyoyev>.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyundagi Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida 422-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020 y., 09/20/422/1033-son.
10. www.prezident.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.
11. www.uza.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.
12. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". Toshkent. O'zbekiston. 2016.
13. Falsafa: Qomusiy lug'at (mas'ul muharrir Q.Nazarov). -Toshkent. "Sharq". 2004.
14. Taylanova Sh. Z. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish. DSc dis-i Avtoref. 2019.
15. Qaxxorova M.M. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va echimlar. F.f.d., ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dis-a Avtoref. Toshkent. 2012.
16. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество / Москва. Политиздат, 1992.
17. Афанасьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Л.: ЛГУ, 1999.
18. Qaxxorova M. (2021). Social-spiritual environment of society and spiritual ideal. Oriental Journal of Social Sciences, 30-36.
19. Qaxxorova M., & Raximshikova, M. (2020). Moral continuity is a social-philosophical, historical phenomenon. The Light of Islam, 2020(3), 103-112.
20. Yuldashev S.U. (2019). The role of the function of stabilization and development of society in scientific management (as socio-cultural technology). Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 255-259.
21. Yuldashev S.O'. (2022). Jamiyatni innovatsion boshqarishda ilmiy yondashuv. Scientific progress, 3(1), 20-25.